



KO‘P QIRRALI HAMKORLIK MUNOSABATLARINI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN SAMIMIY MULOQOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning taklifiga binoan joriy yil 19-20-avgust kunlari amaliy tashrif bilan Budapesht shahrida bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari 20-avgust kuni Budapesht shahriga tashrifi doirasida Yevropaning yetakchi “OTP” banki boshqaruvi raisi Shandor Chanini qabul qildi.

Prezident Vengriya ishbarmonlari bilan hamkorlikdagi birinchi yirik loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilgani — “OTP” banki O‘zbekiston bozoriga kirganini alohida mamnuniyat bilan ta’kidladi.

“Ipoteka bank”ni xususiy lashtirish bo‘yicha bitimning muvaffaqiyati xorijiy investorlarga muhim ishora bo‘lgani va ularning mamlakatimizga qiziqishini oshirgani qayd etildi.

Uchrashuvda O‘zbekiston bank-moliya sohasini rivojlantirish, shu jumladan, xizmatlar sifatini oshirish, eng avvalo, biznes uchun innovatsion va arzon mahsulotlarni

joriy etish borasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo‘jaligi va boshqa ustuvor tarmoqlardagi qo‘shma loyihalarni ko‘llab-quvvatlash va ilgari surishning samarali moliyaviy vositalarini tez fursatda ishga tushirish muhimligi ta’kidlandi.

Bank rahbari Shandor Chani Vengriya kompaniyalari o‘z investitsiyaviy faoliyatini kengaytirishiga yaratilgan qulay sharoitlar uchun O‘zbekiston yetakchisiga samimiy minnatdorlik bildirdi.

Budapesht shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston bilan Turkiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish jarayonida faol muloqot va almashinuvlar davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro tovar ayir-boshlash ko‘rsatkichlari sezilarli darajada o‘smoqda. Joriy yilning 1-iyulidan boshlab Iltimozli savdo to‘g‘risidagi bitim kuchga kirdi. Qo‘shma korxonalar soni 2,5 mingdan oshdi.

O‘zbekiston va Turkiya rahbarlari ikki mamlakat yetakchi kompaniyalarining ustuvor tarmoqlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish borasidagi rejalarni olqishladilar.

Ikki va ko‘p tomonlama tadbirlar rejasi, shu jumladan, qo‘shma Strategik hamkorlik kengashining navbatdagi yig‘ilishiga hamda Turkiya davlatlar tashkiloti va Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining joriy yilda o‘tkazilishi mo‘ljallangan sammitlariga tayyorgarlik masalalari ko‘rib chiqildi.

Budapesht shahrida o‘tayotgan yengil atletika bo‘yicha jahon chempionati doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qatar Davlati Amiri Tamim bin Hamad Ol Soniy, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich va Tatariston Raisi Rustam Minnixonov bilan suhbatlashdi.

Ikki tomonlama amaliy hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, yetakchilar jahon chempionatining erkaklar o‘rtasida 100 metr masofaga yugurish bo‘yicha final bahsini tomosha qildilar.

Yengil atletika bo‘yicha XIX jahon chempionati Budapesht shahrining Yengil atletika milliy markazida 2023-yil 19-avgust kuni boshlangan bo‘lib, 27-avgustgacha davom etadi. Medallar sportning 49 turi bo‘yicha, shu jumladan, erkaklar va ayollar o‘rtasida 24 tadan yo‘nalishda hamda aralash estafetada o‘ynalmog‘da. Musobaqalarda 190 dan ziyod mamlakatdan 2 ming nafardan ortiq sportchi qatnashmoqda.

Chempionatda O‘zbekistondan 5 nafar atletimiz sportning balandlikka sakrash, uch xatlab sakrash, uzunlikka sakrash, yettikurash va marafon kabi turlarida kuch sinashmoqda.

G‘oliblar hamda olimpiya normativlarini bajargan sportchilar 2024-yilda Parij shahrida bo‘lib o‘tadigan Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi.

Prezidentimiz Vengriyaning davlat bayrami — aviyo Ishtvan kuniga bag‘ishlangan tadbirlarda ham ishtirok etdi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vengriyaga amaliy tashrifi yakunlandi.

O‘ZA



YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O‘ZBEKISTON UCHUN!

MEHRI DARYO — QASHQADARYO

ULUG‘LARNING QADAMI TEKKAN TUPROQ



Bugun ko‘ngilni keng qilib, atrofga razm solgan kishi borki, yangilanishlarning, qisqa muddatda amalga oshirilgan mislsiz o‘zgarishlarning guvohi bo‘ladi. Olijanob xalqimizning fidokorona mehnati, ezgu amallari, niyat va istaklariga mos tarzda uzoq yillarga xizmat qiladigan ishlar bajarilmoqda. Yangi O‘zbekistonni barpo etish borasida qo‘lga kiritilayotgan natijalar vatandoshlarimizning ong-u tafakkurida, dunyoqarashining o‘zgarishida, iqtisodiy-ijtimoiy hayotimizda aks etayotir.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti ham barqaror rivojlanib, aholining turmush sharoiti kundan-kunga yaxshilanyapti. Buni har bir yo‘nalishda erishilayotgan natijalar misolida ham kuzatish mumkin.

Joriy yilning birinchi yarim yilligi yakuni bo‘yicha vohada yalpi hududiy mahsulot hajmi 105 foizni, sanoat ishlab chiqarish 106, qishloq xo‘jaligi 103, qurilish pudrat ishlari 103, xizmat ko‘rsatish 113 foizni tashkil etdi.

Mahalliy budget daromadlari 2 trillion 22 milliard so‘mga ta‘minlanib, qo‘shimcha 187 milliard so‘m jalb etildi. Hisobot davrida 300 mingga yaqin aholi, shundan 78 ming nafardan ziyod yoshlarning bandligi ta‘minlandi. “Mahallabay” ishlash tizimi haqida so‘z ketar ekan, qisqa fursat ichida bu tizim naqadar o‘zini oqlaganiga, fuqarolar uchun qulay va manfaatli yangiliklar hayotga kirib kelayotganiga guvoh bo‘lamiz.

Bugun mahallada har bir yo‘nalish, har bir yosh toifasining o‘z egasi, so‘rovchisi bor. Tizimni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoit va huquqiy asoslar joriy etildi. Hokim yordamchilari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari sarhisob qilinganda, qashqadaryolik hokim yordamchilari 87,89 ball bilan mamlakat bo‘yicha birinchi o‘rinni egalladi.

Shu o‘rinda hozir joylarda bandligi ta‘minlanganlarning 62 foizi bevosita hokim yordamchilari tomonidan amalga oshirilgan ishlar samarasi ekanini alohida ta‘kidlab o‘tish joiz. Ularning tavsiyanomalari asosida shu yil boshidan 20 960 fuqaroga 473 milliard so‘m imtiyozli kredit va 3 305 nafar ishsizga 15 milliard so‘m subsidiya ajratildi. Viloyatda 5057 ta yuridik va 4029 ta yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

Davomi 3-betda



MUNOSABAT

Prezidentimizning biz tadbirkorlar bilan navbatdagi ochiq muloqoti sohamiz rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratgani, tashabbuslarga undagani bilan ham katta taassurot qoldirdi, ruhlantirdi. Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbaridan mamlakatimizning yuksak mukofoti — “Do‘stlik” ordenini qabul qilib olganim chindan ham hayotimdagi eng unutilmas kun sifatida muhrlanib qoldi.

E‘TIROF VA RAG‘BAT

YANGI TASHABBUSLARGA UNDAYDI

Tadbirkorlar bilan ochiq muloqot soha rivoji uchun qanchalik ahamiyatli ekanini o‘tgan davr mobaynida amalga oshirilgan ishlar misolida barchamiz ko‘rib, bilib turibmiz. Shu bilan birga, muloqot doirasida bevosita davlat rahbari bilan

yuzma-yuz uchrashib, fikr bildirish imkoniyatiga ega bo‘layotganimiz tadbirkorlar faoliyatiga katta rag‘bat va kuch beradi. Bunga Mo‘ynoq tumanida amalga oshirilayotgan ishlar yaqqol misol bo‘ladi.

Davomi 2-betda



AGRAR TARMOQ

SHOLI YETISHTIRISHDA YETAKCHI DAVLATLAR QATORIGA QO‘SHILA OLAMIZMI?

Sholi yetishtirishning an‘anaviy usuli asrlar davomida saqlanib kelmoqda va hozir ham ko‘plab davlatlar, xususan, mamlakatimizda urug‘ ekilgandan keyin uni suvga bostirib qo‘yish texnologiyasidan foydalaniladi. Bu sholi yetishtirishda boshqa ekinlarga nisbatan bir necha barobar ko‘p suv talab etiladi, degani. Shuning uchun uni hamma joyda ekishning imkoni yo‘q. Boshqa tomondan, jahon bozorida guruch eng talabgir mahsulotlardan biri va unga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Davomi 4-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASINING 75 YILLIGIGA

TARAQQIYOTNI BELGILOVCHI KUCH

Azizbek RAMAZONOV, “Demokratlashtirish va inson huquqlari” jurnali bosh muharriri o‘rinbosari

Bugungi kunda dunyo aholisining uchdan bir qismini yoshlar tashkil etadi. O‘zbekistonda esa 18 milliondan ortiq yosh bor. Bu raqamlar biz yashayotgan globallashuv davrida jahon taraqqiyotida ham, mamlakatimiz rivojida ham yoshlar eng muhim va asosiy kuchga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish 12-avgust — Xalqaro yoshlar kuniga bag‘ishlangan joriy yildagi murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Insoniyat kelajagi butun dunyo yoshlarining bemisl shiddat-shijoati, orzu va g‘oyalari hamda shu ezgu maqsadga munosib hissa qo‘shishga qaratilgan astoydil sa‘y-harakatlariga bog‘liq”. Ushbu fikrga qo‘shimcha qilib ayta olamizki, har bir inson kelajagi yoshlik davrida amalga oshirgan sa‘y-harakatlariga ham bog‘liqdir.

Zero, inson aynan yoshlik chog‘ida jamiyatda o‘ziga munosib o‘rin topishga intiladi. Mehnat faoliyatini yo‘lga qo‘yadi, oila quradi, ilm-fan, san‘at yoki sport sohalari bilan jiddiy shug‘ullana boshlaydi. Ayni shu pallada unga davlat va jamiyatning qo‘llab-quvvatlovi har qachongidan ham ko‘proq zarur bo‘ladi. Chunki insonning yoshlik davrida amalga oshirgan tanlovlari uning taqdiriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bois, dunyoning qator mamlakatlarida yoshlarni qo‘llab-quvvatlash masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Jumladan, bugungi kunda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, huquqlarini himoya qilish, yosh avlod vakillari iste’dod va qobiliyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan ko‘plab xalqaro hujjatlar, strategiya va “Yo‘l xarita”lari mavjud. Dunyoda ko‘plab davlatlar tomonidan tan olingan hamda ularning milliy qonunchiligiga tatbiq etilgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida barcha insonlar, jumladan, yoshlarning ham asosiy fundamental huquqlari kafolatlangan. Tenglik va erkinlik, sifatlari ta’lim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, shaxsiy daxlsizlik, mulkka egalik qilish, saylash va saylanish, so‘z, fikr va vijdon erkinligi kabi huquqlar ushbu universal hujjatda qat’iy mustahkamlangan. Joriy yil 10-dekabrda 75 yilligi nishonlanadigan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi BMT faoliyatining ham asosiy dasturulamali hisoblanadi.

BMT yoshlar huquqlarini ta’minlash, yoshlarga oid maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirishga bugungi kunda har

qachongidan katta e’tibor qaratmoqda. Jumladan, jahon yoshlarining talab-ehtiyojlarini qondirish, salohiyatini mustahkamlash va huquqlarini to‘laqonli ta’minlash uchun BMTning “Yoshlar — 2030” strategiyasi ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu xalqaro strategiyada 5 ta ustuvor yo‘nalish belgilangan:

birinchi yo‘nalish yoshlarni zamonaviy muammolarni hal etishga jalb qilish, butun jahonda tinchlik, adolat va ekologik xavfsizlikka erishishda yoshlarning rolini oshirishga qaratilgan;

ikkinchi yo‘nalish barcha yoshlarning sifatlari ta’lim olishi va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini kengaytirishni ko‘zda tutadi;

uchinchi yo‘nalish yoshlarning iqtisodiy ahvolini yaxshilashga erishish, yoshlarga loyiq ish o‘rinlari yaratish, malaka oshirish tizimini yaxshilash, ishga joylashmagan va ta’lim olmagan yoshlar sonini qisqartirish kabi masalalarni qamrab oladi;

to‘rtinchi yo‘nalish fuqarolik va siyosiy huquqlarini amalga oshirish uchun yoshlarga sharoit yaratish, ular huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirishga xizmat qiladi;



BMT yoshlar huquqlarini ta’minlash, yoshlarga oid maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirishga bugungi kunda har qachongidan katta e’tibor qaratmoqda. Jumladan, jahon yoshlarining talab-ehtiyojlarini qondirish, salohiyatini mustahkamlash va huquqlarini to‘laqonli ta’minlash uchun BMTning “Yoshlar — 2030” strategiyasi ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu xalqaro strategiyada 5 ta ustuvor yo‘nalish belgilangan.

NUQTAYI NAZAR

ILG‘OR INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

IQTISODDA SAMARADOR, MEHNATDA ESA UNUM

Ilmiy tadqiqotlar, innovatsion g‘oyalar, texnik ishlanmalarining ko‘lami va sifati raqobatbardosh, daromadi yuqori mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi. Xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish, hamkorlikda startaplarni yo‘lga qo‘yish esa mamlakat ilmiy salohiyati darajasini oshiradi.

Ilmiy ishlanma va texnologik yangiliklar jamiyat hayotining barcha jabhalarini bog‘lovchi zarur mexanizmga aylanayapti. Jahon bozorlarida raqobatbardoshlikka erishishning muhim shartlaridan biri — mazkur sohalarda hamkorlikni kengaytirish.

Butun dunyoda innovatsiya va startap bir-biri bilan chambarchas bog‘liq atamalariga aylangan. Startaplar bilan bugun abstrakt g‘oyalarni haqiqiy mahsulot va xizmatlarga aylantirish mumkin va bunda ilm-fanning o‘rni katta.

Startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Vengriya davlati bilan hamkorlikda tanlovlar tashkil etilib, natijada qishloq xo‘jaligi, axborot texnologiyalari, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarda mahsulot va xizmatlar yaratilmoqda.

— Davlatimiz rahbarining o‘tgan yili oktabr oyida Vengriyaga rasmiy tashrifi chog‘ida ikki mamlakatning mas’ul idoralari o‘rtasida hamkorlikda startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlash yuzasidan kelishuvga erishilgan edi, — deydi Innovatsion rivojlanish agentligi mutaxassisi Samandar Shukurov. — Shunga ko‘ra, Innovation rivojlanish agentligi hamda Vengriya Respublikasining Tashqi ishlar va savdo vazirligi hamkorligida e’lon qilingan “O‘zbekiston — Vengriya startap loyihalar tanlovi” natijalariga ko‘ra, jami 15 ta loyiha moliyalashtirilgan. Mazkur startap loyihalar ikki mamlakatning mas’ul ijrochi korxonalari tomonidan amalga oshirilishi hamda kelajakda talab yuqori bo‘lgan bozorlarda keng joriy etilishi maqsad qilingan.

Oziq-ovqat zaxiralari bashorat qilinadi

Qishloq xo‘jaligimiz istiqbolli sohalardan. Xalqimiz mehnatkash, yer bilan tillasha oladi. Ammo yil sayin oziq-ovqatga talab ortishi va iqlim o‘zgarishlari buning o‘zi yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Shu sabab, soha bilan bog‘liq

yo‘nalishlarga ham raqamli texnologiyalar kirib kelyapti. Vengriya va O‘zbekistonda katta ma’lumotlarni tahlil qilish va mashinalashtirilgan o‘rganish texnologiyalari orqali qishloq xo‘jaligi hamda oziq-ovqat sohasidagi qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimining sanoat tadqiqoti va texnik-iqtisodiy asoslash loyihasi amalga oshirilmoqda.

— Qishloq xo‘jaligida ilmiy asoslangan xizmat ko‘rsatishni tashkil etish maqsadida xalqaro tajribani o‘rgana boshladik, — deydi loyiha muallifi Sayidjahon Hasanov. — Vengriya bu borada munosib obyekt bo‘ldi. Loyihaning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi hamda oziq-ovqat sanoatida qaror qabul qilishni raqamlashtirish va inson omilini kamaytirish texnikalarini ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun, avvalo, tarmoqda katta ma’lumotlar bazasini ishlab chiqish zarur. Biziz raqamli texnologiyalarni mukammal tarzda ishga tushira olmaymiz.

Birgina misol, yildan-yilga yerlarning sho‘rlashish darajasi ortib bormoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, yer yuzida har yili 24 tonna tuproq degradatsiyaga uchraydi, ya’ni hosildorligini yo‘qotadi. Yechimlardan biri sifatida esa olimlar almashlab ekish amaliyotini taklif qilmoqda. Ammo degradatsiya jarayonini yerga urug‘ qadab, ma’lum vaqt o‘tgach bilish yana bir yilni yo‘qotishga olib keladi. Yuqorida ta’kidlangan loyiha esa uni oldindan aniqlash imkonini beradi. Bunda qishloq xo‘jaligidagi tuproq va sug‘oriladigan yerlarning degradatsiyaga uchrash darajasi aniqlab boriladi. Natijada to‘g‘ri monitoring yo‘lga qo‘yiladi. Loyihadan ko‘zlangan yana bir maqsad — raqamli texnologiyalar va malakali mutaxassislar yordamida oziq-ovqat zaxiralari boshorat qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish. Qolaversa, ekin maydonining holatiga ko‘ra, eng ko‘p hosil beruvchi ekin turini aniqlash orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish.

Loyiha rahbarining ta’kidlashicha, startap doirasida yaratilgan xizmatlarga oziq-ovqat sohasida faoliyat olib boruvchi korxonalarda yuqori talab mavjud. Vengriyaning yuqori tajribaga ega bo‘lgan “Basilicon Consulting Kft” korxonasi mutaxassislari bilan hamkorlikda platforma ishlab chiqilib, 30 ga yaqin mahalliy hamda xorijiy korxonalarga 15 turdagi xizmat ko‘rsatilmoqda.

Axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan platforma

Hamkorlikda yana bir — “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha korxonalarga raqamli iqtisodiyot hamda axborot xavfsizligini ta’minlash uchun “Secube” boshqaruv platformasini joriy etish” startap loyihasi amalga oshirilmoqda. Bu korxonalar faoliyati davomida muhim ma’lumotlarni xavfsiz saqlash, yuzaga kелиshi mumkin bo‘lgan xavflarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan platforma hisoblanadi.

— Startap loyiha doirasida yaratilgan xizmatlarga banklar, sug‘urta kompaniyalari, kredit uyushmalari, kichik va o‘rta biznes korxonalari va boshqa turdagi iqtisodiyot tarmoqlarida talab yuqori, — deydi loyiha rahbari, “Smart IT Solutions team” MCHJ direktori Rustam Abdullayev. — Bugungi kunda bank tizimlarida ma’lumotlarni saqlash doirasida xizmat ko‘rsatuvchi Yevropadagi eng yirik “Kurt Zmt” korxonasi bilan hamkorlikda yaratilgan xizmatlar Vengriya mamlakatida ham keng yo‘lga qo‘yilmoqda. Loyiha doirasida 20 ga yaqin mahalliy hamda xorijiy korxonalarga 10 turdagi xizmat ko‘rsatish imkoniyati yaratilgan. “Secube” imkoniyatlar doimiy ravishda oshirib boriladi. Keyinchalik axborotlarni qayta ishlash, avtomatik tarzda tavsiyalar ishlab chiqish funksiyalari ham qo‘shiladi.

Mutaxassislarning aytishicha, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi xalqaro hamkorlik yangi ish o‘rinlarini yaratilishiga, aholi farovonligi oshirishiga, mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bartaraf etilishiga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qilishi kerak. Aynan shuning uchun ham ilmiy va innovatsion sohalarda aloqalar o‘rnatilgan mamlakatlarning rivojlangan soha va tarmoqlariga ko‘proq e’tibor qaratilib, aynan qaysi yo‘nalishda qo‘shma loyihalarini amalga oshirish belgilab olinadi.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimizning global iqtisodiy makondagi nufuzini yuksaltirishda ilmiy va innovatsion sohalardagi xalqaro hamkorlikning ahamiyati katta. Ilg‘or innovatsion texnologiyalar esa milliy iqtisodiyotimizning samaradorligi va mehnat unumini oshiradi.

Feruza JO‘RAYEVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

MUNOSABAT

E‘TIROF VA RAG‘BAT YANGI TASHABBUSLARGA UNDAYDI

Amina BEKJANOVA, Mo‘ynoq tumanidagi “Muynak Tour” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, “Do‘stlik” ordeni sohibasi

Boshlanishi 1-betda

Gap shundaki, Prezidentimiz aynan Mo‘ynoqqa tashrifi chog‘ida “Madaniyat Mo‘ynoqdan boshlanadi”, degan edi. Mo‘ynoqning bugungi qiyofasi bu gap naqadar to‘g‘ri ekanini isbotlab turibdi.

Shu zamin farzandi, qolaversa, ishbilarmon vakili sifatida ayrim o‘zgarishlarni sanab o‘tsam noto‘g‘ri tushunmang. Chunki Mo‘ynoq bugun, chin ma’noda, o‘zgargan. Hozirgi hayot kechagidan go‘zal.

“Prezidentimizning Mo‘ynoqni rivojlantirish borasida ilgari surgan g‘oya va tashabbuslari, ular asosida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarish hamda yangilanishlar xalqning ertangi kunga ishonchini mustahkamlamoqda.

Mo‘ynoq tumani 1931-yili tashkil etilgan. So‘nggi ma’lumotlarga qaraganda, tumanda 32 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Chet davlatlarga ko‘chib ketgan mo‘ynoqliklar yangilanayotgan hududga qaytib kelyapti.

Mo‘ynoq tarixida muhrlanib qoladigan katta yangilikning biri yangi aeroportning ishga tushishi bo‘ldi. Toshkent — Mo‘ynoq o‘rtasida birinchi marta yo‘lovchi samolyot qatnovi yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi Mo‘ynoq ko‘chalarida yurib, boshqa shaharga kelib qolgan-day his etadi kishi o‘zini. Shaharning



bundan 5-6 yil oldingi qiyofasi tubdan o‘zgargan. Keng va baland imoratlar, mehmonxonalar, xizmat ko‘rsatish shoxobchalari, amfiteatr, kurant, muzeyi, xullas, barcha inshootlar savlat to‘kib turibdi. Sayyohlar eng ko‘p keladigan ochiq osmon ostidagi muzeysda dengiz tomon suzmochdi bo‘lib turgan kemalar uzoq tarixdan so‘zlaydi.

Mo‘ynoq tumanida moddiy-madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga jami 12 ta madaniy meros va ziyorat obyektlari kiritilgan. Ekologiya muzeyi, Orol tarixi muzeyi, Hunarmandlar alleyasi, “Baliqchi uyi” uy-muzeyi, Hakim ota, Toqmaq ota va Ajiniyoz bobo maqbaralari shular jumlasidan. Orol dengizi, Sudochoye ko‘li, Ustyurt tekisligi (konyon, chink), Urga qishlog‘i va “Orolidagi bog‘im” loyihasi asosidagi innovatsion bog‘ ham shular qatoriga kiradi.

Umuman, davlatimiz rahbarining qoraqalpog‘ eliga mehri o‘zgacha. Qoraqalpog‘istonlik tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan alohida hujjatlar ham qabul qilingan. Bu katta e’tibor.

yili o‘nlab yosh ijodkorning ilk kitobi bepul nashr etilmoqda.

Yettinchidan, yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzi va sportni targ‘ib etish, sportchi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash davlatimizning doimiy e’tibor markazida bo‘lib turibdi. Joriy yilning dastlabki yarim yilligida o‘zbekistonlik sportchi yoshlar xalqaro maydonda 247 ta oltin, 119 ta kumush va 110 ta bronza medal sohibiga aylangani zamirida ham sportni rivojlantirish va yoshlar orasida ommalashtirish, zamonaviy sport inshootlarini bunyod etish bo‘yicha olib borilgan tizimli ishlar mujassam.

Sakkizinchidan, yoshlar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, so‘nggi uch yilda 210 ta “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonası” tashkil etilib, ularda 2,5 mingdan ortiq loyiha amalga oshirildi. Yosh tadbirkorlarga esa qulay shartlar asosida imtiyozli kreditlar taqdim etilmoqda.

To‘qqizinchidan, yosh oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ularni uy-joy bilan ta’minlashga ko‘maklashish maqsadida subsidiyalar ajratilib, har bir yosh oila mahallalar kesimida doimiy rag‘batlantirib borilmoqda.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining mohiyatini tashkil etadigan, BMT faoliyatining bosh maqsadi bo‘lgan tinch, barqaror va adolatlı, inson huquqlari to‘liq ta’minlangan jamiyatga aylanishimizda, har sohada ilg‘or va qudratli bo‘lgan davlat barpo etishimizda yoshlar — navqiron vatandoshlarimiz eng asosiy kuch ekanı, shubhasiz. Shuning uchun ham yangi O‘zbekiston — yoshlar mamlakati, yoshlarga yaratilayotgan ulkan imkoniyatlar mamlakati. Bu imkoniyatlar mohiyatida esa yoshlarga bildirilgan yuksak ishonch, ular zimmasiga yuklangan Vatan oldidagi mas’uliyat burchi mujassam. Zero, bugun yurtimizda yaratilgan sharoitlardan foydalanib ilm-fan va kasb-hunarlarini puxta egallab, hozirgi murakkab zamondagi keskin raqobatga tayyor bo‘lib voyaga yetayotgan yoshlarimiz har qanday baland marrani egallashga qodir.



ULUG‘LARNING QADAMI TEKKAN TUPROQ



Murodjon AZIMOV,
Qashqadaryo viloyati hokimi

Boshlanishi 1-betda

O‘tgan yili 9264 gektar yerda dehqon xo‘jaligi tashkil qilingan bo‘lsa, bu yil 10 530 gektar yer ana shu maqsad uchun ajratib berilmoqda. Shuningdek, g‘alladan bo‘shagan 9,6 ming gektar maydon “Temir daftar”, “Ayollar daftar” va “Yoshlar daftar”da ro‘yxatda turgan 20 ming ishsiz fuqaroga dehqonchilik uchun ajratib berilmoqda. Boshqacha aytganda, “Mahallabay” ishlash tizimi orqali joriy yil yakuniga qadar yana 266 400 kishining bandligi ta‘minlanadi.

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa...

Yoshlarning ta‘lim-tarbiyasi haqida so‘z ketar ekan, ta‘lim-tarbiyaga e‘tibor, oila mustahkamligi, bog‘cha, maktablardagi ma‘naviy muhit bugun bizda katta ehtiyojga aylangan fikr tarbiyasi yaxlit omil bo‘ladi. Ma‘rifat, ma‘naviyat buyuk kuch. Ma‘rifatparvar Abdulla Avloniy shunday deydi: Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa, xanjar, olmosdan bo‘lur o‘tkir.

Oiladagi ma‘naviy muhitning sog‘lomligi farzand tarbiyasida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini qadrlash borasida kutilgan natijani beradi.

Qashqadaryoning shunday salohiyatli viloyatga aylanishida umrini, mehnatini sarf etgan, bir necha yil rahbarlik qilgan, yo‘l sozlagan, ko‘prik qurgan, suv keltirgan insonlar haqida yoshlarga, aholiga bildirish maqsadida “Inson aziz” nomli ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda. Viloyat ravnaqi uchun yirik ishlarni amalga oshirgan R.Qurbonov, K.Mahmudov, B.Elboyev, R.G‘oyibov, Ch.Begimqulov, B.Usmonov, M.Ro‘ziyev, X.Toshev, K.Amirov kabi insonlarning nomlarini elimiz hurmat bilan tilga oladi. Tadbirlarga ularning farzandlari, nevra-chevaralari taklif etilyapti. Yuqorida nomlari tilgan olingan aziz insonlarning xalqparvarlik fazilatlarini haqida filmlar namoyish qilinmoqda. Kayvonlar boshlagan ezgu ishlarni davom ettirish haqida so‘z yuritilib, o‘g‘il-qizlarimizga saboq berilyapti. Bu kabi ma‘rifiy tadbirlar viloyatimiz bo‘ylab davom etmoqda.

Mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi — vertikal boshqaruv tizimi yaratildi. Mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilib, bu vazifaga tashkilotchilik qobiliyatiga ega, tashabbuskor yigit-qizlar tanlab olindi va yoshlar uchun yuzdan ortiq imkoniyatlar yaratildi. Buning natijasida ularning o‘z-o‘zini bandligini ta‘minlash, daromad topishiga keng yo‘l ochildi.

Xususan, joriy yilning shu davriga qadar “Yoshlar daftar” orqali 6 ming 400 nafar yoshga qariyb 24 milliard so‘mlik yordam ko‘rsatildi. Alohida e‘tiborga muhtoj 23 mingdan ziyod yosh 528 nafar rahbarga birlashtirib berildi. Har bir o‘g‘il-qizning muammolari o‘rganilib, “Yo‘l xarita”lari ishlab chiqildi. Qisqara vaqt ichida o‘n ming nafarga yaqin yoshning ijtimoiy muammolari ijobiy hal etildi. 30 nafar chin yetimga bepul yoki ularni taqdim qilindi.

Joriy o‘quv yilining o‘zida 19 415 nafar talaba-yoshning shartnoma to‘lovlarini uchun 185 milliard so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratildi. Ahamiyatli, bu kreditlarning

Ishonch va g‘urur bilan aytamanki, biz — ulug‘ xalq farzandlarimiz. Shu tabarruk va jonajon Vatanimizga mehr va sadoqatimizni bildirib, bilim va tajribamizni, iqtidor va aqlu zakovatimizni yo‘naltirgan holda davlatimiz rahbari atrofida birlashamiz, ko‘zlangan ezgu maqsadlarga, albatta, erishamiz.

135 milliard so‘mi 14 578 nafar talaba qizimizga foizsiz berildi. Mamlakatda birinchilardan bo‘lib viloyat markazida “Yoshlar sayilgohi” barpo etildi.

Yoshlarning ilm-fan sirlarini puxta o‘rganishi, zamon talabiga mos kadrlar bo‘lishiga hamisha alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, “Xorijiy til orqali ITga yo‘l” loyihasi doirasida 500 nafar yoshning olti oy davomida ingliz tili kurslarida bepul o‘qishi uchun 900 million so‘m ajratildi. Barcha sharoitlarga ega IT maktabi yangidan tashkil etildi. Iqtidorli yoshlarning ilg‘or startap loyihalarini moliyalashtirish uchun 523 million so‘mlik grant mablag‘lari ajratildi.

Besh tashabbus olimpiadasining joriy yilgi birinchi mavsum respublika final bosqichida viloyatimiz yoshlari 8 ta oltin, 7 ta kumush, 8 ta bronza, umumiy hisobda 23 ta medalni qo‘lga kiritdi. Ushbu olimpiada doirasida qayd etilgan natijalar orqali 12 ta sport maydonchasi barpo etiladi.

Iqtidorli, tashabbuskor yoshlarimiz erishgan natijalar doimiy ravishda munosib baholanmoqda. Xususan, yaqindagi yoshlarimizning 3 nafari “Kelajak bunyodkori” medali, 2 nafari “Mard o‘g‘lon” davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Muborak tumani “Bo‘ston” MFY yoshlar yetakchisi O‘lmasjon Pardayev “Yilning eng namunali mahalla yetakchisi” tanlovining mamlakat bosqichi g‘olibi bo‘ldi.

Albatta, islohotlar samaradorligi, yoshlar ta‘lim-tarbiyasi uchun yaratilgan shart-sharoitlarga uzviy bog‘liq. Joriy yilning olti oyida viloyatimizda 300 ga yaqin davlat va nodavlat bog‘chalari ochildi. Shu o‘rinda aytish lozimki, 2017-yilda viloyatdagi jami bog‘chalar soni 326 ta bo‘lgan.



sovrini uchun o‘tkazilgan olimpiadaning fizika, kimyo va biologiya fanlaridan 1-, 2-, 3-o‘rinlarni olgan to‘qqiz nafar g‘olib o‘quvchi muddatidan oldin Qarshi davlat universitetiga talabalikka qabul qilindi.

Ayol mamnun bo‘lsa...

Aholi salomatligini ta‘minlash masalasida ham jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. Buni sohadagi o‘zgarishlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Xususan, kam ta‘minlangan, ehtiyojmandlarni bepul davolash va jarrohlik amaliyotini o‘tkazish uchun 5,5 milliard so‘m mablag‘ ajratilib, olti ming nafarga yaqin ijtimoiy ko‘makka muhtoj fuqaroning salomatligi tiklandi. Zamonaviy jihozlarni bilan ta‘minlash maqsadida tibbiyot muassasalariga 10



Yil yakuniga qadar yana 250 taga yaqin bog‘cha foydalanishga topshirilib, viloyat bo‘yicha qamrov darajasi 70 foizga yetkazildi.

Joriy yil viloyatimiz maktab ta‘limi tizimi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi, desak adashmaymiz. Shu yil mart oyida 1236 ta maktab direktorlari Shahrissabz shahrida yig‘ilib, viloyatda maktab ta‘limi sifatini oshirish bo‘yicha murojaatnoma qabul qilindi.

2023-2025-yillarda viloyat maktab ta‘limi tizimini rivojlantirish, moddiy-texnik bazasini boyitish maqsadida 500 milliard so‘mlik dastur ishlab chiqildi. Yaratilgan bu kabi sharoit va imkoniyatlarga javoban yangi avlod vakillari qator yutuqlarni qo‘lga kiritmoqda. Xalqaro darajadagi qan olimpiadalarida o‘quvchilarimiz 1 ta oltin, 3 ta bronza medali va 1 ta musobaqa sertifikatini qo‘lga kiritdi. Ilk bor, 11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida viloyat hokimi

milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi. Natijada deyarli barcha turdagi jarrohlik amaliyotlari viloyatning o‘zida bajarilishiga erishilmoqda.

Yil yakuniga qadar qator yangi tibbiyot muassasalari, xususan, Qarshi shahrida ming o‘rinli “Ona-bola tibbiyot klasteri” foydalanishga topshirildi. Yangilangan Konstitutsiyamizda belgilanganidek, “ijtimoiy davlat” tamoyillarini inobatga olgan holda Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi tarixiy voqea bo‘ldi, desak adashmaymiz. Shundan kelib chiqib, viloyatimizda Ijtimoiy himoya milliy agentligining viloyat boshqarmasi, tuman va shaharlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etilmoqda.

Shu o‘rinda aytish kerakki, tashkil etilgan yangi tuzilma orqali aholini manzilli ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha “Qashqadaryo tajribasi”ni yaratish uchun bel bog‘ladik.



Amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlarning yana bir muhim mezonini ayolni rozi qilishga qaratilgan. “Ayol mamnun bo‘lsa, oila farovon bo‘ladi, mamlakatda baxtiyorlik hukm suradi” tamoyili davlat siyosatining asosiy vazifasiga aylandi.

Yil boshidan hozirga qadar mahallalardagi xotin-qizlar faollari tomonidan “Ayollar daftar”ga kiritilgan 76 ming 127 nafar xotin-qizga ko‘maklashildi. Jumladan, 43 ming nafardan ortig‘i ish bilan ta‘minlandi, 2 ming 519 nafariga 25 milliard so‘m kredit ajratildi, 33 ming 922 nafariga 29 milliard so‘m bir martalik moddiy yordam ko‘rsatildi. Ushbu maqsadlar uchun “Ayollar daftar” jamg‘armasidan 26 milliard so‘m sarflandi.

Ajrimlar soni 153 taga, jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderi berilishi 183 taga kamaydi. Oilaviy kelishmovchiliklar sabab ajrim yoqasida turgan 789 ta oila yarashtirilib, 654 bolaning tirik yetim bo‘lib qolishi oldi olindi.

Tadbirkor endi qo‘rqmaydi

Bugungi tadbirkor kechagi tadbirkor emas. Prezidentimizning kuni kecha tadbirkorlar bilan o‘tkazgan ochiq muloqotida ishtirok etib, bunga yana bir bor amin bo‘ldik. E‘tibor bergan bo‘lsangiz, uchrashuvlardagi takliflar natijasida soha vakillariga yildan-yilga keng imkoniyatlar berilmoqda. Jumladan, o‘tgan yilgi uchrashuvdan so‘ng biznes mikro, kichik, o‘rta va yirik toifalarga ajratilib, ularning har biri bilan alohida yondashuvlar asosida ishlash tizimi joriy etildi. Bundan tashqari, tuman va shaharlar 8 ta toifaga ajratilib, ko‘pgina tumanlariga alohida soliq, kredit va moliyaviy yordam rejimlari ishga tushirildi. Natijada hududdagi tadbirkorlar daromadli oshishiga zamin yaratildi. Jumladan, vohamizdagi toifaga ajratilgan tumanlarda ham o‘zgarishlar ko‘zga tashlana boshladi.

18-avgust kuni o‘tkazilgan ochiq muloqotda ham Prezidentimiz tashabbusi bilan tadbirkorlarning takliflarini inobatga olgan holda yana bir qator imkoniyatlar berildi.

Xususan, “Tax gap” tizimi bekor qilindi, tadbirkorlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sudga shikoyat qilishidagi har qanday cheklovlar olib tashlanadi, Qishloq qurilish banki Biznesni rivojlantirish bankiga aylantirildi.

Shuningdek, yirik xorijiy brendlarni jalb qilgan korxonalarga grant beriladi, kameral nazoratda tadbirkordan hujjat talab qilish yoki uni idoraga chaqirish qat‘iyan taqiqlanadi, tadbirkorlarga “140 ta ilg‘or sanoat korxonasi” loyihalari taqdimot qilindi.

Bundan tashqari, hududlardagi kichik biznes markazlarida o‘qigan tadbirkorlar loyihasi moliyalashtirildi.

Bu esa, yo‘nalishda yangi davr boshlanayotganidan dalolat, albatta. Shu kuni davlatimiz rahbarining farmoni bilan bir guruh qashqadaryolik tadbirkorlar ham davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Bu ularning mehnatiga berilgan munosib rag‘bat bo‘lib, ertangi kunga ishonchi va o‘ziga xos harakatchanligini oshirishi tabiiy.



Prezidentimiz ochiq muloqotda “Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko‘tarish — ustuvor vazifamizdir”, deya ta‘kidladi. Albatta, bu sohaga qanchalik keng yo‘l ochib, ko‘p imkoniyat berar ekanmiz, yurtimiz farovon va obod, aholimizning turmushi yaxshilanib boraveradi.

Bugun “Odamlar ertaga emas, bugun yaxshi yashashi kerak” degan ustuvor g‘oya har bir yurtdoshimizning taqdirida aks etmoqda. So‘nggi bir yil ichida Qashqadaryo aholisini turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida davlat tomonidan 5 trilion 528 milliard so‘m mablag‘ ajratildi. Viloyatni 2023-2025-yillarda rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan qarorga asosan, ajratilgan 1 trilion 775 milliard so‘m mablag‘ hisobidan 751 kilometr elektr uzatish tarmoqlari va 189 ta transformator punkti hamda 8,7 kilometr gaz quvurlari rekonstruksiya va modernizatsiya qilindiqda.

“Tashabbusli byudjet” loyihasi doirasida birinchi mavsumda g‘olib deb topilgan 261 ta taklif uchun 285 milliard so‘m yo‘naltirildi. Jumladan, ichki yo‘llar uchun 162 milliard so‘m, umumta‘lim maktablariga 57 milliard, maktabgacha ta‘limga 5 milliard, sog‘liqni saqlashga 17 milliard va boshqa tadbirlar uchun 44 milliard so‘m ajratilib, ishlar yuqori sur‘atda olib borilmoqda. Bundan tashqari, “Mening yo‘lim” loyihasi bo‘yicha ichki yo‘llar ta‘miri uchun 33 ta mahallaga 34 milliard so‘m beriladigan bo‘ldi.

Kuni kecha mahallalardagi muammolar bo‘yicha bergan takliflarimiz ma‘qullandi va respublika byudjetidan 421 milliard so‘m ajratildi. Shu bois, deputatlar bilan maslahatlashib, qilinadigan ishlarning manzilli ro‘yxatini tasdiqlab oldik. Bunda asosiy e‘tiborni aholini qiynab kelayotgan muammolarga qaratdik. Ushbu mablag‘larning o‘zlashtirilishi hisobiga 315 kilometr ichimlik suv tarmoqlari va 15 ta suv inshooti, 525 kilometr yo‘llar va 10 ta ko‘prik, 37 ta ijtimoiy soha obyektida qurilish-ta‘mirlash ishlari boshlandi.

Bu kabi e‘tibor va g‘amxo‘rliklardan aholi mamnun. Endi har bir so‘mning hisob-kitobini qilib, qattiq nazoratga olgan holda belgilangan tartibda ish olib boramiz.

Joriy yilda aholini uy-joy bilan ta‘minlash maqsadida 5 020 xonadonli 168 ta ko‘p qavatli uy qurib foydalanishga topshirishni reja qilganmiz. Hisobot davrida 352 xonadonli 15 ta, shundan “Yangi O‘zbekiston” massivlarida 240 xonadonli 12 ta ko‘p qavatli uy foydalanishga topshirildi.

Bunga hech kim ishonmasdi

So‘nggi yillarda viloyatimiz agrar sohadan sanoatlashgan hududlar qatoriga o‘tdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yil boshidan 516 ta yangi sanoat korxonasi o‘z faoliyatini boshladi. Tadbirkorlik muhitining yaratilgani evaziga xorijiy investorlar tomonidan yirik loyihalar va mablag‘lar sanoat sohasiga yo‘naltirilmoqda.

Ishlab chiqilgan sanoat mahsulotlarining 18 foizi xorijiy korxonalar hissasiga to‘g‘ri keldi. Sohada eksport hajmi 137 million dollarni tashkil etdi. Albatta, ushbu ko‘rsatkichlarga erishishda tadbirkorlarimizning munosib hisssasi bor. Ular tomonidan 50 million dollarlik 127 ta loyiha ishga tushirildi. Yil yakuniga qadar 650 million dollar bo‘lgan 347 ta yangi loyiha amalga oshirildi.

Viloyatimizda 23 turdagi mineral xomashyo mavjud bo‘lib, Qashqadaryo yer osti zaxiralarga boy hudud hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda joriy yilda 50 ta yangi tadbirkorlik subyekti ish boshladi va ular soni 200 taga yetdi. Bu raqam yil yakuniga qadar 247 tani tashkil etishi belgilangan. Masalan, Avstriyaning dunyoga mashhur “Lassenberger grupp” kompaniyasi Kitob va Chiroqchi tumanlaridagi konlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kiritish bo‘yicha amaliy ishlarni boshlab yubordi. Yakkabog‘ tumanidagi 2 ta istiqbolli ko‘mir zaxirasi mavjud uchastkalaridan samarali foydalanish ishlari yo‘lga qo‘yildi.

Oziq-ovqat sanoati yo‘nalishida joriy yilda yangidan 10 ta un va 17 ta yog‘ ishlab chiqarish korxonasi tashkil etiladi. Kuni kecha Qamashida “Bo‘ritosh aya” fermer xo‘jaligi tomonidan o‘z brendi ostida yillik quvvati 10 ming tonna bo‘lgan un ishlab chiqarish korxonasi ishga tushirildi. Bu kabi korxonalar hisobiga yiliga 45 ming tonna un, 60 ming tonna yog‘ ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi.

Bundan bir necha yilni avval Qashqadaryo viloyatida televizor ishlab chiqarilib, xorijga eksport qilindi desda, bunga ko‘pchilik ishonmasdi. Yaqinda Qarshi shahridagi “Buyuk Turon” sanoat zonasida “Alp texno servis” korxonasi tomonidan yillik quvvati 200 mingta bo‘lgan zavod ish boshladi va bugunga kelib mahsulotlarining 80 foizini eksportga yo‘naltirmoqda. Korxonada yil yakuniga qadar kir yuvish mashinasi ishlab chiqarish ham yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, charm va ipak mahsulotlarini qayta ishlash, mebelsozlik, farmatsevtika, ichimliklar ishlab chiqarish, qog‘oz sanoatida ham qator istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Hisobot davrida 163 million dollarlik eksport amalga oshirilib, belgilangan reja 111 foiz, 2022-yilning mos davriga nisbatan 113 foiz bajarildi. Eksport geografiyasi Afrikaning bir necha davlatlari hisobiga kengaydi. Yil yakunigacha 326 million dollarlik eksport amalga oshirilishi rejalashtirildi.

Iqtisodiyotimizda 183 million dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar o‘zlashtirildi. O‘zlashtirish asosan, Xitoy, Germaniya, Singapur, Turkiya va Latviya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmog‘da. Yil yakuniga qadar bu ko‘rsatkichni 363 million dollarga yetkazish maqsad qilingan va 1,6 barobar o‘shish ta‘minlanadi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida ham tabiat inijliklari, suv ta‘minotidagi uzilishlarga qaramay dehqonlarimiz g‘alladan mo‘l hosil ko‘tardilar. Joriy yilda 1 million tonnadan ziyod don yetishtirilib, o‘rtacha hosildorlik 68 sentnerni tashkil qildi. Kitob, Shahrissabz, Yakkabog‘, Qamashi va Kasbi tumanlarida o‘rtacha 75-80 sentner g‘alla olinib, yuqori hosildorlikka erishildi.

Mavsum yakuni bilan g‘allachilik klaster va fermer xo‘jaliklari ixtiyorida 600 ming tonnaga yaqin don qoldi. Klasterlar va fermerlar tomonidan 20 mingga yaqin ehtiyojmand oilaga 5 ming tonna don bepul tarqatildi.

Ayni kungacha 27 million dollarlik meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilindi. Yil yakuniga qadar bu ko‘rsatkich 58 million dollarga yetkazildi.

Suvdan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida 3,6 ming gektar maydonda suv tejoychi texnologiyalar joriy etildi. Irrigatsiya-melioratsiya tadbirlari natijasida 35 ming gektar, Dehqonobod suv omborining foydalanishga topshirilishi hisobiga esa 1,6 ming gektar maydonning suv ta‘minoti yaxshilandi.

Ishsiz aholiga ajratilayotgan yer maydonlaridan samarali foydalanishga ko‘maklashish, shuningdek, hozirda aksion savdolarida turgan 2,8 mingta lot bo‘yicha yangi dehqon xo‘jaliklarini tashkil qilish rejalashtirildi.

Albatta, yuqoridagi aytganimizdek, keng ko‘lamli ishlar uzviy davom ettirilib, odamlarni hayotdan rozi bo‘lib yashashlari uchun imkoniyatlarni kengaytirish, qulayliklar yaratish maqsad qilingan.

Ishonch va g‘urur bilan aytamanki, biz — ulug‘ xalq farzandlarimiz. Shu tabarruk va jonajon Vatanimizga mehr va sadoqatimizni bildirib, bilim va tajribamizni, iqtidor va aqlu zakovatimizni yo‘naltirgan holda davlatimiz rahbari atrofida birlashamiz, ko‘zlangan ezgu maqsadlarga, albatta, erishamiz.

Zero, yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun astoydil mehnat qilib, inson qadrini ulug‘lash yo‘lida jonbozlik ko‘rsatish har birimizning vazifamizdir.



AGRAR TARMOQ



Iroda TOSHMATOVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Dunyo aholisining uchdan bir qismi uchun guruch asosiy oziqa manbai sanaladi. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda sayyoramizda 158,8 million gektarga sholi ekilib, 742,5 million tonna guruch yetishtirilgani ko‘lamni aniqroq tasvirlaydi. Bu borada Xitoy, Hindiston, Indoneziya yetakchilik qilmoqda.

asosida rivojlantirishning zarurati ham shunda. Bu yo‘nalishda jahon tajribasi ancha ilg‘orlagan. Ko‘plab davlatlar allaqachon sholichilikda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash hisobiga resurstejamkor, hosildor navlarni yetishtiryapti. Olimlarimiz ana shu navlarni iqlim sharoitimizga moslashtirish, yangi navlarni yaratish bo‘yicha izlanishlar olib boryapti va natijalar ham ko‘zga ko‘rina boshladi. Tizimda oldimizga qo‘ygan maqsadlarimiz aniq. Birinchi galda, sholining shunday navlari, shunday agroteknologiyasini yaratishimiz kerakki, u xuddi, qo‘pol qilib aytganda, bug‘doyga o‘xshab sug‘orilsin. Ya‘ni sholini suvga botirmaylik, ekin suvda suzib yurmasin. Chunki dunyoda suv tanqisligi yuqori. Sholi yetishtirishda esa juda ko‘p suv talab qilinadi. Bunga qarshi zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashimiz kerak. Ikkinchi yo‘nalish — gibridd sholi navi yaratish vazifasi. Masalan, paxta, bug‘doyda gibridd yo‘nalishi rivojlanmagan. Chunki bug‘doyning 3 ta, paxtaning 2 ta genomi bor. Shuning uchun ularni chatishtirganda samara ko‘rinmayapti. Lekin sholining gibriddi bor va u Xitoy, Filippin, Hindiston kabi dav-

NAVLAR KOLLEKSIYASIGA BOY MUASSASA

Sholi tropik mintaqadan kelib chiqqaniga qaramay, mo‘tadil iqlimli hududlarda keng tarqalgan. Sholi parvarishlashning o‘ziga xos agroteknologiyasi mavjud va ularni takomillashtirib borish sohaning dolzarb vazifalaridan. Gap shundaki, sholi yetishtirishda ko‘p suv talab qilingani sababli jarayonda ilg‘or resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llash samaradorlikni oshiradi. Ayni shu maqsadda Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutida keng ko‘lamli izlanishlar olib borilmoqda.

Qariyb yuz yillik tarixga ega muassasada 30 dan ortiq sholi navi, 10 dan ziyod soya va shuncha miqdordagi yangi mosh navlari yaratilgan. Bu aytishgagina oson. Bitta nav yaratish uchun 10 yildan 15 yilgacha vaqt kerak. Eski texnik vositalar, an‘anaviy yondashuvlar bu mudatni uzaytiraveradi. Shu bois, oxirgi yillarda institut laboratoriyalari eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanmoqda. Tadqiqotlar ham shunga yarasha jadalashgan. Bir yilda 2-3-marta ekin ekish, gibridlarni yaratish bo‘yicha ishlar olib borilyapti.



Sholi genetikasi seleksiyasi laboratoriyasi genofondida mingga yaqin nav namunalari bor. Ularning aksariyati xorijdan keltirilgan va bari tadqiqot uchun tajriba maydonlariga ekilgan. Seleksioner olimlar ushbu navlar asosida yangi, kam suv talab qiladigan, sifati va hosildorligi yuqori sholi navlarini yaratishni maqsad qilgan. Shu yil oxirigacha yana 2 ta ertapishar navni davlat reyestriga kiritish bo‘yicha hujjatlar tayyorlanyapti.

— Sholi ishlab chiqarish tannarxini arzonlashtirish, guruchga talabni qondirish uchun, avvalo, hosildorlik yuqori bo‘lishi kerak, — deydi Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori Mas‘udjon Sattorov. — Buning uchun mintaqaning tabiiy shart-sharoitiga mos keladigan istiqbolli navlarni tanlab ekish, hozirgi zamon agroteknologiyasida muhim bo‘lib turgan sholini ko‘chat usulida yetishtirishni keng yo‘lga qo‘yish lozim. Qolaversa, har bir nav uchun ishlab chiqilgan agroteknologiya shartlariga qat‘iy rioya qilish talab etiladi.

Bugungi kunda institutimizda sholining 2 mingdan ortiq kolleksiya namunasi mavjud. Shu kolleksiya asosida yaratilgan 12 ta nav davlat reyestriga kiritilgan.

7 ta nav namunasi esa davlat nav sinovlariga taqdim etilgan. Yana bir necha namuna tayyorlangan bo‘lib, bu jarayon uzluksiz davom ettirilaveradi. Chunki har bir hududning o‘ziga xos iqlim sharoiti bor va aynan ularga mos navlarni yaratish hosildorlik oshishiga xizmat qiladi.

O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida 2017-2022-yillarda sholining kasallik va zararkunandalar, to‘kilishga, yotib qolishga chidamli “Tarona”, “Tantana”, “Sadaf” navlari yaratildi. “Iskandar”, “Lazurniy”, “Tarona” navlaridan 115 gektar yerga bir-lamchi urug‘chilik tashkil etilib, har yili 280 tonna yuqori avlodli urug‘lik yetishtirilmoqda. Urug‘liklar mahalliy ehtiyojdan tashqari qo‘shni Qozog‘iston, Qirg‘izistonga eksport qilinadi. Bugungi kunda yurtimizda ekin maydonlarining 90-95 foizi mazkur institutda yaratilgan sholi navlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bozorlarimizda sotilayotgan va taklif etilayotgan sholi navlarining deyarli hammasining muallifi ham shu institut olimlari.

Bu yerda dukkakli dan ekinlaridan soya va mosh ekilib, yangi navlarini yaratish hamda ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha ham ishlar olib boriladi. Dunyo va mahalliy navlar kolleksiyasidan soyaning 200 ta, moshning 130 ta namunasi sinab, o‘rganib kelinmoqda. Soyaning institut olimlari tomonidan yaratilgan 8 ta, moshning 3 ta navi davlat reyestriga kiritilgan.

SHOLI YETISHTIRISHDA YETAKCHI DAVLATLAR QATORIGA QO‘SHILA OLAMIZMI?

O‘tgan yili yurtimizda 110 ming gektarga yaqin maydonda 516 ming tonna sholi yetishtirilib, o‘rtacha hosildorlik gektariga 4,7 tonnani tashkil etdi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, bu yetarli ko‘rsatkich emas va sholichilikda yetakchi davlatlar bilan solishtirganda, bizda hosildorlik ancha past. Qolaversa, jahonda oziq-ovqat xavfsizligi va suv tanqisligi oshib borayotgan sharoitda sholichilikda nafaqat hosildorlik, balki resurstejamkor, qurg‘oqchilikka chidamli, sifatlil yangi navlarni yaratish zarurati yuqori.

Bu faqat aholi iste‘moli uchun xilma-xil guruch navlarini taklif etishnigina nazarda tutmaydi. Asosiy maqsad yangi navlar asosida sholichilik tarmog‘ini rivojlantirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirib, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdan iborat.

— Sholi dunyodagi 3 ta eng muhim o‘simlikdan biri, — deydi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi bosh direktori, biologiya fanlari doktori, professor Alisher To‘rayev. — O‘zbekiston sharoitida unga talab yuqori. Sohoni ilm-fan

latlarda yaratilgan. Uchinchi maqsadimiz, seleksiyani tezlashtirish uchun ilg‘or raqamli texnologiyalarni yo‘lga qo‘yish kerak. Masalan, yuqori issiq haroratda sholi dalasida yurib, ekinning agroteknik holatini o‘rganish ishlarini olib borganidan ko‘ra, bitta xonada o‘tirib, zamonaviy texnologiyalar yordamida bir vaqtning o‘zida o‘simlikning bir nechta parametrlarini kuzatgan samaraliroq. Hozirgi zamonaviy seleksiyaning asosi ham shu. Bu seleksiya jarayonlari muddatini 8 yildan 2 yilgacha qisqartirib beradi.



XALQARO TAJRIBALAR NATIJA BERA BOSHLADI

Sholining o‘ziga xos xususiyati bor: u yerning meliorativ holatini yaxshilab, sho‘rlanishni kamaytiradi, bir yillik begona o‘tlarni yo‘qotadi. Mutaxassislarning aytishicha, sholi uchun boshqa ekinlardan chiqqan oqova suvni ham bemalol ishlatish mumkin, bu bilan suv iqtisodi va ekologik tozalikka erishiladi.

Bugungi kunda yurtimizda kuchli sho‘rlangan 300 ming gektardan ortiq tashlandiq, boshqa ekin ekish mumkin bo‘lmagan yer mavjud. Umumiy ekin maydonlarining sho‘rlanish darajasi ham ortib boryapti. Ana shunday yerlarga sholi ekish yaxshi samara berishi fanda va amaliyotda o‘z tasdig‘ini topgan. Ammo suv tanqisligi ko‘pincha bunga imkon bermaydi. Buning uchun avval kam suv talab qiladigan sholi navlarini yaratish lozim. Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutida qiymati 2,5 milliard so‘m bo‘lgan 5 ta loyiha bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar shunga asoslangan. Bu borada guruch yetishtirishda yetakchi va ilg‘or tajribaga ega davlatlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Xorijlik mutaxassislar tadqiqotlarda bevosita ishtirok etmoqda.

— O‘zbekistondagi Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti bilan 7 yildan beri hamkorlik qilib kelyapmiz, — deydi Xitoy milliy sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti mutaxassisi, doktor Jian Jiang. — Institut huzurida O‘zbekiston — Xitoy sholichilik tadqiqotlari laboratoriyasi tashkil etganmiz. Unda ikki davlat qo‘shma loyihasi amalga oshirilyapti. Laboratoriyaning asosiy maqsadi O‘zbekistondagi sholi liniyalari bilan Xitoydagi elita urug‘ avlodlarini chatishtirib, yangi sholi navlari yaratishdan iborat. Ular, asosan, qurg‘oqchilik, yotib qolishga chidamli, past haroratda unib chiqadigan navlar hisoblanadi. Xitoy sholichiligida olimlarning roli katta. Sohadada yangi navlar yaratishning ilg‘or texnologiyalari rivojlangan. Shu bois, bu jarayon bizda 10-15 yilni emas, balki qisqaroq muddat, ya‘ni 3-4 yilni tashkil etadi. Har bir viloyat, tumanga moslashgan sholi navlari bor va ular 8-10 tonnagacha hosil beradi. Ana shu tajribani o‘zbek olimlari bilan bo‘lishib, birgalikda tadqiqotlar olib boryapmiz. Loyiha 2 yilga mo‘ljallangan va ikki mamlakat tomonidan moliyalashtirilgan. Bu davrda institut mutaxassislari Xitoyga borib, malaka oshirib qaytadi. Mahalliy olimlarimiz Xitoy tajribasi asosida duragay sholi yetishtirishni ham keng yo‘lga qo‘ymoqchi. Bu sholining bir yillik navi bo‘lib, gektaridan 15 tonnagacha hosil beradi. Qolaversa, u turli ta’sirlarga chidamli bo‘ladi.

Sholi yetishtirishda Hindiston ham boy tajribaga ega. Mamlakat sholi yetishtirish, ko‘p sonli aholisini guruch mahsulotlari bilan ta’minlash va xorijga eksport qilishda yetakchilardan biri. Hindistonlik mutaxassislar bilan hamkorlik ayni shu tajribalar, ilmiy va amaliy yutuqlarni yurtimizda qo‘llashga asoslanadi.

— Biz nafaqat Hindiston, balki boshqa yurtlardan ham yangi namunalar olib kelib, O‘zbekistonda sinash orqali sholining yangi navlarini yaratishni maqsad qilganmiz, — deydi Xalqaro sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti xodimi, FAOning sholichilik bo‘yicha



xalqaro eksperti hindistonlik Husayn Manzur. — Bugungi kunda dunyodagi eng global muammolardan biri iqlim o‘zgarishi va qurg‘oqchilik bo‘lib, bu bevosita sholichilik sohasiga ham ta’sir qilmoqda. Ko‘p sholi navlarining o‘shir jarayonida yotib qolishi ham jiddiy masala. Bu borada Hindiston yangi texnologiyalarni faol qo‘llash orqali yaxshi natijalarga erishmoqda. 10 yildan buyon Xalqaro sholichilik ilmiy-tadqiqot institutida ishlayman. Shu yillar davomida biz yotib qolishga, sho‘rga chidamli, tezpisar sholi navlari yaratishga muvaffaq bo‘ldik va bu tajribalarimiz dunyoning o‘nlab davlatlarida o‘z natijasini bermoqda. O‘zbekiston bilan hamkorligimiz ham ayni shu jihat-larga asoslangan. Biz xorijdan olib kelingan sholi navlari asosida O‘zbekistonning tuproq-iqlim sharoitiga mos, sho‘rga va suvsizlikka chidamli navlarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlar olib boryapmiz. Ushbu izlanishlar mamlakat qishloq xo‘jaligi sohasi rivojiga katta turki bo‘lishiga ishonamiz va tadqiqotlar o‘z natijasini bera boshlaganidan mamnunmiz.

Institutning tajriba dalalariga kam suv talab qiladigan, qurg‘oqchilikka chidamli 521 ta namuna ekilgan. Ular Filippinda joylashgan Xalqaro sholichilik instituti bilan hamkorlikda yurtimizga olib kelingan. Olimlarning tushuntirishicha, bu navlar vegetatsiya davrida 20-25-marta suv ichadi. Har suv ichgan paytda bir gektar maydonga 300 kub metr dan suv sarf qilinadi. Taqqoslaydigan bo‘lsak, an‘anaviy usuldagi sholi pishib yetilguncha doimiy suv turadigan maydonlarda 16 mingdan 23 ming metr kubgacha suv sarflanasa, tajriba maydonlaridagi sholi navlari 6,5-7 ming metr kub suv bilan pishib yetiladi. Yana ularning ko‘pi ertapishar navlar bo‘lib, bug‘doydan keyin takroriy ekin sifatida ham yetishtirish mumkin.



Qariyb yuz yillik tarixga ega muassasada 30 dan ortiq sholi navi, 10 dan ziyod soya va shuncha miqdordagi yangi mosh navlari yaratilgan. Bu aytishgagina oson. Bitta nav yaratish uchun 10 yildan 15 yilgacha vaqt kerak. Eski texnik vositalar, an‘anaviy yondashuvlar bu muddatni uzaytiraveradi. Shu bois, oxirgi yillarda institut laboratoriyalari eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanmoqda.

IKKI MARTA HOSIL OLISH YO‘LGA QO‘YILDI



Xalqaro hamkorlikdagi ana shunday tajribalar asosida Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari sholidan yilda ikki marta hosil olish tajribasini muvaffaqiyatli o‘tkazishga erishdi. Janubiy Koreyaning O‘zbekistondagi KOPIA markazi mutaxassislari bilan hamkorlikda olib borilgan tadqiqot sholini ko‘chat usulida mexanizatsiya yordamida ekish texnologiyasiga asoslanadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, bu usul 30 foizgacha suvni tejash imkonini beryapti. Bunda urug‘li sari gektariga 60-70 foizgacha tejaladi. Agar gektariga 200 kilogramm sholi ekilishini hisobga olsak, juda katta urug‘lik tejab qolinadi.

— Shu yilning 27-iyul kuni Andijon viloyati Izboskan tumanidagi tajriba dalasida yurtimizda ilk bor mexanizatsiya yordamida ekilgan sholi ko‘chatlarining birinchi hosili o‘rib olindi, — deydi Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti professori,

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori Rixsivoy Tillayev. — Aprel oyida tajriba sifatida ekilgan o‘rtapishar, serhosli “Iskandar” navli sholi ko‘chatlari yozning qoq o‘rtasida pishib yetilgani-yu, uning ketidan ikkinchi hosil uchun yana ertapishar sholi navi ko‘chatlarining yerga qadalgan chin ma’nodan tarixiy voqea bo‘ldi. Ko‘chat usulida sholi yetishtirish va mexanizatsiya yordamida ekish tajribasi yurtimiz sharoitida yangilikdir. Bu Janubiy Koreya texnologiyasiga asoslangani bois, ko‘chatlarni mahalliy sharoitga moslashtirish ham birmuncha vaqt talab etdi. Yurtimiz tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirilgan ko‘chat tayyorlash uchun ekinning oziqa negizi, ya‘ni tuproq, biogumus va boshqa moddalar aralashmasi nisbatlari o‘rganildi. So‘ng 25-30 kunlik sog‘lom ko‘chatlar belgilangan muddatlarda tayyorlandi. Aprel oyida ko‘chatlarni mexanizatsiya yordamida yerga joylashtirdik. Hosildorlik ham yomon bo‘lmadi.



Institutning tajriba dalalariga kam suv talab qiladigan, qurg‘oqchilikka chidamli 521 ta namuna ekilgan. Ular Filippinda joylashgan Xalqaro sholichilik instituti bilan hamkorlikda yurtimizga olib kelingan. Olimlarning tushuntirishicha, bu navlar vegetatsiya davrida 20-25-marta suv ichadi. Har suv ichgan paytda bir gektar maydonga 300 kub metr dan suv sarf qilinadi.

O‘ZBEK GURUCHIGA JAHON BOZORIDA TALAB BOR

Hozirgi vaqtda yurtimizda yetishtirilayotgan sholi hosili deyarli eksport qilinmaydi. Bu mahalliy aholi ehtiyoj va talablarini qondirish zarurati bilan bog‘liq. Ammo boshqa tomondan, o‘zbek palovi, allaqachon, dunyo oshxonasidan joy egallagan va milliy taomimizni o‘zimizning guruchda tayyorlash baribir boshqacha. Gap mintaga iqlimi, hududga xoslikda bo‘lsa kerak. Qolaversa, yer yuzining turli burchaklarida o‘zbeklar istiqomat qiladi va ular mahalliy guruchlarimizni iste‘mol qilishga o‘rgangan. Shu bois, chet el bozorlarida ham guruchimizga talab bor va uni ta’minlash uchun eksportni keng yo‘lga qo‘yish lozim.

Bu borada organik guruch yetishtirish eng maqbul yechimlardan biri bo‘la oladi. Shu maqsadda institut olimlari ilmiy tadqiqotlar olib borib, organik sholi yetishtirishni boshladi. Buning uchun nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyoda birinchi dala foni tayyorlandi. Unga organik sholi ko‘chatlari qo‘lda va mexanizatsiya yordamida ekilib, parvarishlanmoqda.

— Organik — bu ekologik toza, tabiiy mahsulot, degani. Hozir jahon bozorida shunday mahsulotlarga talab yuqori va narxi ham ancha qimmat, — deydi institut laboratoriya mudiri, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi Feliks Ibragimov. — Ammo organik mahsulot yetishtirish oson emas. Ekin ekish uchun yerni tayyorlashdan tortib, pishib yetilgan mahsulotni qadoqlab, eksport qilishgacha bo‘lgan jarayonlarning barida faqat tabiiy mahsulotlar ishlatilishi talab etiladi. Shu jihatdan, bu katta xarajat hamdir. Ammo narx shunga yarasha belgilanadi va bunday mahsulotlarning xaridori jahon bozorida ko‘p. Organik sholi yetishtirishda xalqaro standartlar talablaridan kelib chiqib ish olib boryapmiz. Tajriba maydoni dalasiga hech qanday kimyoviy o‘g‘it solinmagan, kimyoviy moddalar qo‘shilmagan, faqat tabiiy vositalar qo‘llanilgan. Tuproq unumdorligini saqlash, oshirish, organik sholini oziqlantirish uchun kech kuzdan sholi

ayrim qismlarda 5,5 tonnaga, ayrimlarida 6, hatto 7 tonnagacha yetdi. Natija yangi texnologiya asosida ko‘chat usulida sholi ekilishi yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatdi. U usul xarajatlarni kamaytirib, resurslarni tejash bilan birga, sholini yilda bir necha marta yetishtirish imkonini beradi. Bunda ekinlarni joylashtirish strukturasida ularning salmog‘i keskin o‘zgarib, xalqaro talablarga deyarli tenglashmoqda. Avvallari bir dalada, asosan, sholi, so‘ng kuzgi bug‘doy asosiy ekin sifatida almashinadigan va yilda ikki marta hosil olingan bo‘lsa, endilikda kuzgi bug‘doy — takroriy sholi yoki soya — kuzgi bug‘doy ekish imkoniyati yaratilmoqda. Shunday qilib, mamlakatimizda yilda ikki yoki uch marta sholi hosili olish tajribasi sinovdan muvaffaqiyatli o‘tdi, deya olamiz. Endi navbat buni hududlarimizda keng joriy qilish, bu orqali dehqon va fermerlar daromadini yanada oshirish, xalqimizning guruchga bo‘lgan talabini qondirishdan iborat. Bu yo‘ldagi izlanishlarimiz esa davom etadi.



ko‘chatini ekishgacha bo‘lgan davrda organik siderat (arpa, javdar, bahorgi bug‘doy aralashmasi) ekilib, ko‘chat ekishdan 10-12 kun oldin maydalab, yerga qo‘shib haydab yuborildi. Oziqa yetarli bo‘lishi uchun yerga chirigan mol go‘ngi solindi. Bularning natijasida maydonning har gektaridan 3-4 tonna organik sholi hosili olinishi kutilmoqda. Kelasi yildan sholi hosildorligini oshirish uchun xilorella, organik mikrobiologik o‘g‘itlar va boshqalarni sinash ishlari boshlanadi.

Organik sholi yetishtirish mahsulotni eksport qilish imkoniyatini oshirish barobarida iqtisodiy daromad ortishiga ham sezilarli ta’sir qiladi. Institut olimlari organik sholi urug‘larini ham tayyorlab, qo‘shni davlatlarga eksport qilish ushida ishlar olib bormoqda. Maqsad sholining yurtimiz sharoitiga mos yangi navlarini yaratish barobarida guruch yetishtirishda dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga qo‘shilishdan iborat.



UMR YO'LI



TURLI QAHRAMONLAR SIYMOSIDA SAHNAGA 16 MING MARTADAN KO'PROQ CHIQQAN SAN'ATKOR

O'zbek teatr va qo'shiq san'ati rivojiga salmoqli hissa qo'shgan atoqli san'atkor Lutfixonim Sarimsoqovani mamlakatimizda tanimagan yoxud nomini eshitmagan odam kam topiladi. Yetti yashardan yetmish yoshgacha – hamma uni yo sahnada, yoki ekranda, hech bo'lmasa, televizorda, albatta, ko'rgan. Uning yuksak san'atiga qoyil qolgan, tan bergan, ofarin aytgan.



Mamatqul HAZRATQULOV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

Men ham esimni taniganimdan beri Lutfixonim Sarimsoqova san'atiga oshnoman. "Mahallada duv-duv gap", "Sen yetim emassan", "Farzandlar" filmlari ekranga chiqqanida tengdoshlarim maktab o'quvchilari bo'lib, san'atning tub mohiyatini tushunib yetmagan edik. Ammo hammamiz shu filmlar xususida gaplashar, ayniqsa, Lutfixon aya ijrosidagi rollar haqida bahslashardik. "Sen yetim emassan"dagi Fotima xolaning mehridaryoligidan hayratga tushsak, "Farzandlar"dagi ona siymosi, ayniqsa, uning aqldan oziy, "Olib ketinglar, meniyan olib ketinglar", deb dardli yig'lashi qalbimizni larzaga solar edi. "Mahallada duv-duv gap" filmidagi soddadil ona-chi? Har narsadan hayratga tushib, "Voy, tinib-tinchimagan odamlar-ey, nimalarni o'ylab topishmaydi-ya", degan gaplaridan zavqlanib kular edik.

Lutfixonim aya bilan ilk "tanishuvimiz" ana shunday bo'lgan. Yillar o'tgan sari ayaning san'atini chuqurroq tushuna bordim. Bu uning o'zi bilan uchrashish, suhbatlashish ishtiyoqini tug'dirdi.

1976-yilning sentabr oyi edi. O'sha paytda ayaning 80 yillik yubileyiga tayyorgarlik ko'rilayotgandi. Men "O'zbekiston madaniyati" gazetasida ishlar edim. Redaksiya toshirig'i bilan ayaning uyiga bordim.

Hech esimdan chiqmaydi, kechki payt edi. U vaqtlarda aya Ko'kcha dahasi yaqinida, 1-shahar shifoxonasi atrofidagi hovlilardan birida yashardi. To'g'risi, ayaning uyiga kirib, avvaliga hayron bo'lganman. G'oyat kamtarona, oddiy turmush. Hech qanday hasham, jimjima, ortiqcha jihozlar yo'q. Torgina, shinan. Hovliga suv sepi, so'riga gilam solingan. Ayaning turmush o'rtog'i O'zbekiston xalq artisti Muhammajdon To'jizoda o'sha so'rida o'tirgan ekan...

Aya va Muhammajdon ota bilan uzoq suhbatlashdim, turli gazetalarini, suratlarini ko'rsatishdi... Darvoqe, el-yurt o'rtasida mashhur odamlarni biz ko'pincha juda mag'rur, balandparvoz, uncha-muncha kishi bilan gaplashib o'tirmasa kerak, deb o'ylaymiz. Aslida, unday emas. Kasbim taqozosi bilan mamlakatimiz va boshqa yurtlarning bir necha atoqli adiblari, san'atkorlari bilan suhbatda bo'lganman. Ularning aksariyati juda oddiy, kamtar, samimiy... Aya ularning hammasidan ko'ra, kamtarroq, soddaroq ko'rindi menga.

Suhbat asnosida aya ijro etgan rollarni ko'z oldimga keltiraman. Qahramonlaridagi qat'iyat, aytish mumkinki, ba'zi o'rnlarda erkakcha xatti-harakatlar ("Paranji sirlari"-dagi Mastura satang rolini eslang) naqadar tabiiy chiqqanidan hayratlanib o'tiribman. Balki san'atkorning mahorati shudir, balki aya sahnani sahna, hayotni hayot, deb bilishining natijasidir.

O'sha suhbatdan olam-olam taassurot bilan qaytdim. Shundan keyin yana bir necha marta aya bilan goh yuzma-yuz, goh telefonda suhbatlashish baxtiga muvassar bo'ldim...

Esimda bor: o'sha yili kuzda Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida ayaning 80 yillik yubileyi keng nishonlandi. Atoqli ijodkorlar, shogirdlari, hamkasblari, qo'shni davlatlardan kelgan san'atkorlar ayani muborak yoshi bilan qutladilar. O'shanda ayaning sevinchi cheksiz ekanini uning chehrasidan, muloyim boqishidan bilib turardi.

Mehriboni bor

Men bir qaro kunda tug'ildim, Tug'ildim-u, shu on bo'g'ildim.

Atoqli shoir Hamid Olimjonning bu satrlari o'tgan asr boshlarida oddiy o'zbek oilalarida dunyoga kelgan farzandlarning ahvolini ifoda etadi. Lutfixon ayaning bolaligi ham ana shunday sharoitda o'tdi. U hali aqlini tanib-tanimay ota-onasidan ayrildi. Oqibatda kishilar eshigida sarson-u sargardon kezishlar boshlandi. Keyinchalik uni xolasi o'z tarbiyasiga oldi. Lekin... Baxt ham, tashvish ham egiz bo'ladi, deyishadi. Oradan ko'p o'tmay Lutfixonning xolasi ham qazo qildi. Yana odamlar eshigida sang'ish, bir burda non uchun kishilarning qo'lga javdirab termulish...

Bu ham yetmaganday, uni o'n uch yoshida erga berib yuborishdi. O'n uch yosh-al Mana, "tug'ilgan zahoti bo'gilgan kunlar". Hali ko'chada hammompish o'ynab, kapalak quvlab, lolaqizg'aldoq terib yurishi lozim bo'lgan qizaloq ro'zg'or tashvishini chekishi kerak. Naqadar jaholat! Muhabbat, sevgi shavqidan bahramand bo'lish u yozda tursin, hali bu so'zlarni eshitib ulgurmagun qizcha hayotning beshafqat qonunlariga ro'baru kelsa!

Lutfixon zo'rma-zo'raki "barpo" bo'lgan oilani tark etdi. Tark etdi-yu, o'ylab qoldi. Xo'sh, endi nima qilish kerak? Qayerga, kimning oldiga borsin? Oiladan voz kechdi, ammo zamondan-chi? Undan voz kechish, uni tark etish mumkinmi? Buning uchun Lutfixon o'zini qayta qafasga urmaydi. Lutfixon ham qafasdagi qash edi — u shu qafasni yorib chiqdi. Mayli, zarhal idishlarda ovqat ichmaydi, kimxob kiyimlar ham kerak emas. Mayli, kishilar eshigida sargardon bo'lsin, mayli, och-nohor qolsin. Lekin qaytib bormaydi. Joni omor bo'lsa, bir kuni o'tar. Zero, Navoiy hazratlari aytganidek,

Oltin qafas ichra gar qizil gul bilsa, Bulbulga tikondek oshyon bo'lmas emish.

Bu Lutfixonning oiladan chiqib ketishi o'z ozodligi, erki uchun kurashi sari qo'yilgan ilk dadil qadam edi. Endi taqdiri, kelajagi uchun o'zi kurashishga ahd qildi. Ana shu niyat bilan tug'ilgan qishlog'idan bosh olib chiqib ketdi.

Yo'l yurdi, mo'l yurdi. Oxiri Qo'qonga kirib keldi. Qayerga borishni bilmaydi.

To'g'ri kelgan tomonga ketaverdi. Bozordan chiqib qoldi. Qadimiy Qo'qonning Chorsu bozori. Kun issiq. Ochlik, yo'l yurish yosh Lutfixonni holdan toydirgan. Shilq etib yiqilib tushganini o'zi ham bilmay qoldi. Muzday suvdan seskanib ko'zini ochdi. Ro'parasida notanish ayol turar edi. Bu Xolnisa degan do'ppido'z ekan. U Lutfixonni uyiga olib ketdi. O'z hunarini unga ham o'rgatdi. Lutfi kechalari ashula aytib, do'ppi, kashta tikardi.

Sarg'aygan bu daraxtning Soyaboni bormikin?

Kuyub yongan yurakning Mehriboni bormikin?

"Kuyub yongan yurakning mehriboni"... bor edi. Ammo buni Lutfixon ham, u singari boshqalar ham hali tushunib, anglab yetmagan edi. Bu mehribon — o'zbek xalqi, o'zbek millati edi.

Buyuk ustoz

Aya bilan necha marta suhbatlashgan bo'lsam, doimo Hamzaning nomini ehtirom bilan tilga olardi. "Ustozingiz kim?" degan savolga hech ikkilanmay "Hamza Hakimzoda Niyoziy" deb javob berardi.

Ha, Lutfixon ayaning san'atkor bo'lishida, el-yurt nazariga tushishida Hamza hal qiluvchi o'rin tutgan.

O'tgan asrning yigirmanchi yillarida Qo'qonda ochilgan xotin-qizlar klubiga Lutfixon ham tez-tez qatnab turdi. U yangi-yangi qo'shiqlar o'rganar, shirali ovozi bilan dugonalari olqishiga sazovor bo'lgan edi.



U qo'shiqni berilib, qalb qatlaridan chiqarib kuylardi. Dard-u alamlari, hasrati, tug'ilib o'sgan qishlog'iga, qarindosh-urug'lariga sog'inch tuyg'ulari ashula ohangiga singib ketardi. Shundanmi, u kuylaganda hamma sel bo'lib tinglar, dugonalari undan yangi-yangi qo'shiqlar aytib berishini so'rashardi.

Bir kuni Lutfixon qo'shiq aytayotganda klubga Hamza kirib keladi. Uni ko'rib Lutfixon ashula aytishdan to'xtaydi. Ammo Hamza Hakimzoda, aytaver, deb imo qilgach, bir oz tortinib bo'lsa-da, qo'shiq kuylaydi. Shu-shu Hamzaning nazariya tushadi. Shoir Lutfixon bilan tez-tez suhbatlashadi, uning taqdiri bilan qiziqadi, qo'shiqlaridan o'rgatadi. Hamzaning taklifi bilan Lutfixon Qo'qon teatriga ishga qabul qilinadi. Bu dargohda o'sha kezlari Mirshohid Miroqilov, Muhiddin Qoriyoqubov, Tamaraxonim singari o'zbek san'atining qaldirg'ochlari mehnat qilardi. Ular Lutfixonni o'z davralariga oladi.

Hamza bilan tanishmaganimda, u kishi menga yo'l-yo'riq ko'rsatib, maslahat bermaganida, taqdirim ne kechardi, bilmayman, — degan edi aya o'sha kunlarni eslab.

U paytlarda xotin-qizlarning sahnaga chiqishi tasavvurga sig'maydigan gaplar edi. Tursunoy, Nurxon... Endigina o'n olti yoshga kirgan Nurxonni o'z akasi yigirma to'qqiz joyiga pichoq urib o'ldirdi.

Ana shunday sharoitda sahnaga chiqib ashula aytish, raqsga tushish chinakam jasorat edi. Lutfixon aya ana shunday fidoiylardan biri. Bularning aksariyatiga shoir, dramaturg Hamza rahnamolik qildi. Uning yuzlab shogirdlari qatori Lutfixon ham shogirdlik burchini sadoqat bilan bajarib keldi. Ustoz qalamiga mansub asarlarda rol ijro etganda yayrab ketardi, butun iste'dod va mahoratini ishga solardi. "Nurxon"dagi mushfiq ona, "Paranji sirlari"dagi Mastura satang, "Maysaraning ishi"dagi uddaburon Maysara obrazlari bunga misoldir...

Men va menga o'xshagan qanchadan-qancha xotin-qizlarning san'atkor bo'lib yetishuvida ustoz Hamzaning xizmatlari beqiyos, — degan edi aya. — U ham bevosita yordami, ham asarlari bilan bizni tarbiyaladi, saboq berdi.

Hamza asarlari zamondoshlarinigina emas, undan keyingi qanchadan-qancha avlodni ham tarbiyaladi. Hozirgi san'atkorlarimiz ham Hamza asarlarini sahnaga qo'yishni, ularda rol ijro etishni sharaf deb biladilar. Zotan, klassik adiblar qalamiga mansub asarlarni sahnaga qo'yish, ulardagi obrazlarni sahnaga olib chiqish har bir rejissyor va aktyor uchun mahorat maktabidir. Hamza asarlaridagi G'ofir, Jamila, Maysara, Oyxon, Xolisxon va boshqa obrazlar ana shunday o'lmas qahramonlardir. Halima Nosirova, Sora Eshonto'rayeva, Shukur Burhonov, Olim Xo'jayev va boshqa ko'plab atoqli san'atkorlarimiz mahoratining takomilida Hamza asarlarining ahamiyati juda katta bo'lgani shubhasizdir.

ovoz bilan kulishini eslang. Uning ovozi, kulgisi tomoshabin yuragiga xanjar kabi sanchiladi. Yoki Mastura satangning "Ey, Norboyvachcha, haliyam bo'lsa belbog'ni ro'molga almashtirib qo'ya qoling", degan achchiq kinoyalari-chi. Uning gaplaridan ilon po'st tashlaydi. Bu so'zlarni aytayotgan san'atkor harakatlarning o'ziyoq olam-olam mazmunga ega.

Lutfixon aya bugun bu rolda, etilga boshqa rolda sahnaga chiqdi, deylik. Tomoshabin uni darhol tanib ololmaydi. Nega? Sababi, aktrisa o'zi ijro etgan obrazning obdon o'zlashtirib oladi, ya'ni rol o'ynamaydi, balki sahnada obraz qiyofasida yashaydi.

Teatrdan chiqqandan keyin esa yana o'zimiz bilgan o'sha oddiygina Lutfixon aya "aylanadi". Bu — san'atkor mahorati. Holbuki, shunday aktyorlar borki, ular bizning zamondosh rolda chiqsa ham, boshqa mil-lat vakillari siymosida ko'rinsa ham, klassik asarlar qahramonlarini o'ynasa ham sahnaga chiqishi, bir og'iz gapirishi bilan o'z qaysi artist ekanini bilib olamiz. Chunki obrazlarining hammasi bir xil ohangda gapiradi, bir xil yuradi, bir xil kuladi va hokazo. Lutfixon ayani tomoshabin darhol tanimaydi, deganda, mana shu jihatlarni nazarda tutayman. Aslida, tomoshabin taniydi, ammo kim ijro etayotganini, hatto sahnadagi voqealar spektakl ekanini esidan chiqarib qo'yadi. Muayyan rolni maromiga yetkazib ijro etgan artisti o'sha obraz nomi bilan atashga ham o'rganib o'lganmiz. Aytaylik, Abror Hidayatovni — Olim, Olim Xo'jayevni — Navoiy, Abdil Jalilovni — Solihboy, Soib Xo'jayevni — Toshbolta, Razzoq Hamroyevni — Nasriddin Afandi va hokazo.

Lutfixon aya Qo'qon teatridan keyin Andijon teatriga ishga o'tdi. U yerda Komil Yashin (adabiy emakdosh), To'xtasin Jalilov, Soib Xo'jayev kabi san'atkorlar bilan tanishdi, hamkorlik qildi. Keyin Toshkentga — respublika musiqali drama teatriga ishga keldi. Bu paytda uning aktrisalik mahorati ancha shakllanib, takomillashib qolgan edi. Shu bois, Boborahim Mirzayev, Karim Zokirov, Mukarrama Turg'unboeva, Halima Nosirova singari mashhur san'atkorlar bilan partnyor bo'lib rollar ijro etishga uncha qiyinlamadi...

O'zbekistonda opera teatrlarining ochilishi Lutfixonim san'atining yangi qirrasini kashf etilishiga imkon yaratdi. Endi u operalarda partiyalar ijro eta boshladi. "Er-Tyarg'in"da Tama, "Nargis"da Noz-noz partiyalari aktrisa ijodiy tarimayi holini bezab turibdi.

Muqimiy nomidagi teatr ishga tushgandan boshlab aya ijodiy faoliyatini shu san'at dargohida davom ettirdi. Bu sahnada necha o'nlab rang-barang rollarni ijro etdi. "Xolisxon", "Farhod va Shirin", "Nurxon", "Oltin ko'l", "Kimga to'y, kimga aza", "Ikki bilakuzuk", "Mavlono Muqimiy" spektakllari-dagi rollar shular jumlasidandir. Ularning har biri faqat Sarimsoqova ijodida emas, ayini chog'da o'zbek musiqali drama teatri tarixida o'chmas iz qoldirdi. Shu bilan birga, yosh san'atkorlar uchun mahorat maktabiga aylandi.

Aya 1937-yilni alohida hayajon bilan eslaydi. O'sha yili Moskva'da o'zbek san'ati va adabiyoti dekadasida bo'ldi. Shu tantanada Lutfixonim "Farhod va Shirin"da Yosuman, "Gulsara"da Oysara rolini ijro etdi. O'sha kezlari Moskva nashrlarida o'zbek san'atkorlari, xususan, Lutfixonim Sarimsoqova ijodi haqida maqolalar berildi. Jumladan, "Pravda" gazetasi "Gulsara" spektaklida Oysara rolini ijro etgan Lutfixonim Sarimsoqova katta dramatik iste'dodga ega ekanini namoyish etdi", deb yozgan edi.

Ayaning ijodi to'g'risida turli gazeta va jurnallarda qanchadan-qancha maqolalar yozildi. Zotan, sahnaga 16 ming martadan ko'proq turli qahramonlar siymosida chiqish, faqat chiqish emas, ularning xarakterini ochib berish — bu aytishga oson, xolos. Aslida, ular mashaqqatli mehnat, tinimsiz izlanishlar, uyqusiz tular hisobiga qo'lga kiritilgan...

Shu o'rinda bir narsani ta'kidlamogochi-

man. Aya nimagaki erishgan bo'lsa, faqat mehnat, mashq evaziga erishgan. Chunki u na bir oliy o'quv yurtida, na bir maxsus studiyada tahsil olgan. Faqat hayotdan, us-tozlardan o'rgangan.

Ekran...

Aya ijodini filmlarda ijro etgan rollarisiz tasavvur qilish qiyin. Bu ommaviy san'atga u 1931-yili Marg'ilon fabrikasida suratga olingan "Ozod" filmida suratga tushish bilan kirib keldi. Shundan so'ng o'nlab filmlarda turfa obrazlar yaratdi. "Qasam" nomli ilk ovozi filmida ham aya rol ijro etgan. "Mahallada duv-duv gap", "Sen yetim emassan", "Ikkinchi bahor", "Hamza", "Stadionda uchrashamiz", "Farhodning jasorati"...

Bu filmlar orasida, ayniqsa, "Sen yetim emassan" alohida ahamiyatga ega. Aya ijro etgan Fotima xola obrazi o'zbek onalari mehribonligi, bolajonligi, fidoyiligi tim-solidir. Filmini ko'rimgan tomoshabin yo'q hisobi. Shu bois, uni tahlil qilishga ham ho-jat yo'q. Bir narsani eslatish kerakki, ayaning o'zi ham ikkinchi jahon urushi yillarida boshpanasiz qolgan go'dak boshini sila-gan, tarbiyasiga olgan. Katya ismli bu qiz-chaga Karomat, deb nom qo'yadi. Aya uni onalik mehri bilan tarbiyaladi, o'stirdi, voyaga yetkazdi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Asqad Muxtor Ikkinchi jahon urushi mavzu-sidagi bir she'rda "Ha, ha, o'sha mashhur Lutfixon aya", deb bekorga yozmagan edi.

Lutfixon aya sahnada, ekranda ijro et-gan rollari tomoshabinlarga ezigulikdan, odamiyligidan qancha obrazlari. Ijoiy obrazlari o'rnak bo'lsa, salbiy obrazlari ogohlantiradi.

Men Belarusda bo'lib, Minskda Ikkinchi jahon urushi muzeyi zallarini aylanganimda, Riga yaqinidagi Salaspils konslageri o'rinda barpo etilgan yodgorlik muzeyini ko'zdan kechirganimda kinolarda ko'rganimiz, kitoblarda o'qiganimiz urush voqealarini esladim. Ayniqsa, Salaspilsda fashistlar to-monidan vahshiylarcha o'ldirilgan bolalar-niing qo'ldagi raqamlarni ko'rib yuragim uv-shib ketdi. Bu ajalonada yetti ming go'dak vahshiyona o'ldirilgan. Shunda yodimga O'zbekistonga evakuatsiya qilingan bolalar tushdi. Har qalay ular baxtli bolalar ekan. Holbuki, qancha-qancha bolalar evakuatsi-ya qilinmay qolib ketgan. Afsus...

"Sen yetim emassan" filmi, bu filmdagi Fotima xola obrazi menga shularni eslatadi. Zotan, o'zbek xalqi qancha bola bo'lsa, joniga joylar edi. Binobarin, bu millatimizga xos fazilatdir. Lutfixonim aya ana shu xus-usiyatlarini yorqin ochib bera olgan.

Alqissa

Lutfixonim Sarimsoqova san'at uchun tug'ilgan. U 95 yoshida (1991-yil) vafot etdi. Bu yillarning har biri olam-olam ma'noga, voqealarga boy bo'ldi. Aya ularni hayajon bilan eslardi. Qo'qondagi faol xotin-qizlar Tojixon Shodiyeva, To'raxon Ibrohimova, To'rixon Mavlonbekova, Jannatxon Obidova ko'rsatgan yordam va g'amxo'rliklari aya minnatdorlik bilan yodga olar edi. Har bir rol ustida oylab ishlaganlarini ku-lib gapirib berardi. "Nurxon" spektaklidagi Kimyoxon rolini sahnada uch ming besh yuz marta ijro etganini eslasa, quvonchdan ko'ziga yosh keldi. O'zbekiston xalq artisti, SSSR xalq artisti unvonlarini olgan kunlarni hayajon bilan esga olardi. O'sha davrning ko'plab ordenlari bilan taqdirlan-gan edi.

Plastinkalarni qo'yib, bir vaqtlar o'zi kuylagan "Omon bo'laylik", "Jambilxon", "Kuling", "O'zgancha" kabi ashularini ting-laganda xayollar uni uzoq o'tmishga olib ketardi. Bir vaqtlar odamlar eshigida xor-zor bo'lib yurgan, burda non uchun kishilar qo'lga mo'l'librab termligun Lutfi elu yur-timizga Lutfixonim bo'lib tanildi. Uni faqat shogirdlarigina emas, butun san'at muxis-lari aya deb e'zozladi.

Teatr va kino san'ati muxislari, qo'shiq shinavandalari hamon aya san'atini qadrlaydi, eslaydi, aya qatnashgan filmlarni in-tiqib tomosha qiladi. Ayaga vafotidan keyin 2001-yilda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni berilgani ham bu fikrlarni tasdiqlaydi.

Halol, vijdonan qilingan mehnat qadr-qimmat topadi. Yengil-yelpilik, qo'l uchida ish qilish, mol-dunyoga berilish yaxshilikka olib kelmaydi, deb ta'kidlardi aya.

Ayaning o'zi uzoq umri davomida shu gaplarga amal qilib yashadi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DUK

MUASSIS:
**O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-846.
43690 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oq bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bashorat Yunusova
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilmiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 01:20